

FAOL TASHQI SIYOSAT VA MULOQOTLAR MUNTAZAMLIGI O‘ZBEKISTON – FINLYANDIYA HAMKORLIGIGA YANGICHA SUR‘AT BAG‘ISHLAYDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan
Finlyandiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Stubb rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi.



Ikki mamlakat o‘rtasidagi diplomatik aloqa 1992-yil 26-fevralda o‘rnatilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev faol tashqi siyosat va islohotlar yo‘lini e‘lon qilgach, O‘zbekiston — Finlyandiya hamkorligi yangicha sur‘at oldi. Ilgari vaqti-vaqti bilan amal qilgan muloqot mexanizmi jadallashdi. 2018-yil tomonlar Savdo-iqtisodiy hamkorlik

bo‘yicha hukumatlararo komissiyani qayta tiklashga kelishdi. Bu qadam muloqotni jonlantirish va yangi hamkorlik yo‘nalishlarini izlashga turki berdi. Finlyandiya O‘zbekistonning BMT va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi tashabbuslarini ham faol qo‘llab-quvvatlab kelmoqda, bu o‘zaro ishonchning yuqori darajasini aks ettiradi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston va Finlyandiya o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar sezilarli darajada faollashdi. Hozir mamlakatimizda mashinasozlik, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, telekommunikatsiya, toza texnologiyalar va agrosanoat sohalarida faoliyat yurituvchi Finlyandiya kapitali ishtirokidagi o‘ndan ortiq korxona faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ko‘ksaroy qarorgohida 31-oktabr kuni Finlyandiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Stubbni tantanalı kutib olish marosimi bo‘ldi. Qarorgoh oldidagi maydonda ikki davlat bayroqlari ko‘tarildi, faxriy qorovul saf tortdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qutlab, shohsupaga taklif etdi. O‘zbekiston va Finlyandiya davlat madhiyalari yangradi. Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini bir-biriga tanishtirdilar. Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Finlyandiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Stubb rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokara o‘tkazdilar. O‘zbekiston bilan Finlyandiya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni, eng avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar sohalarda yanada mustahkamlash istiqbollari atroflicha ko‘rib chiqildi. Turli darajalardagi siyosiy muloqot va almashinuvlar jadal rivojlanib borayotgani, biznesga oid sheriklik faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo hajmi izchil ortib, iqtisodiy va ishbiarmonlik aloqalari mustahkamlanmoqda. Mamlakatimizda Finlyandiya bilan hamkorlikda Xalqaro Nordik universiteti muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda, maktab ta‘limi sohasidagi dasturlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston — Finlyandiya biznes forumining yakunida umumiy qiymati 1 milliard yevrodan ziyod istiqbolli qo‘shma loyihalar portfeli shakllantirildi. Muzokaralarda tovar ayirboshlashni karrasiga oshirish, shu jumladan, o‘zaro mahsulot yetkazib berishni rag‘batlantirish uchun Savdoni moliyalashtirish qo‘shma jamg‘armasini tashkil etish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi va to‘qimachilik mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi

bozorlariga olib chiqish uchun sertifikatlash laboratoriyalarini ochish tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi. Geologiya va muhim materiallar, energetika, agrosanoat, raqamlashtirish, sun‘iy intellekt, ekologiya, turizm va boshqa muhim tarmoqlarda kooperatsiyani kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratildi. 2026-yilda Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishini o‘tkazish va Ishbiarmonlar kengashini ta‘sis etish yuzasidan kelishuvlarga erishildi. Hududlararo hamkorlikni kengaytirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani ta‘kidlandi. Ta‘lim, tibbiyot hamda mehnat migratsiyasi sohalaridagi hamkorlik masalalari ham ko‘rib chiqildi. Kelgusi yilda birinchi Rektorlar va innovatsiyalar forumini o‘tkazish rejalashtirilgan. Prezidentlar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar. Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Finlyandiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Stubb Qo‘shma bayonotni imzoladilar. Yetakchilar huzurida turli yo‘nalishlarda, shu jumladan: — savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish; — foydali qazilmalarni qazib olish sohasidagi hamkorlik; — geologiya fanlari, geologik qidiruv, foydali qazilmalar va yer osti suvlarini izlash hamda konchilik sohalaridagi hamkorlik; — raqamli transformatsiya, innovatsiyalar va raqamli o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirishga ko‘maklashish; — ijtimoiy himoya sohasidagi hamkorlik; — maktabgacha va maktab ta‘limi tizimiga raqamli ta‘lim platformasini joriy etish bo‘yicha hamkorlik; — ta‘lim, fan va innovatsiyalar sohalaridagi hamkorlik;

— raqamlashtirish va suv resurslarini boshqarish sohasidagi fan-ta‘lim salohiyatini oshirish; — iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit muhofazasi borasidagi hamkorlikka oid ikki tomonlama hujjatlar to‘plamini imzolash marosimi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston — Finlyandiya sammiti yakunida Ko‘ksaroy qarorgohida daraxt ekish marosimi bo‘lib o‘tdi. Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Stubb Faxriy mehmonlar xiyobonida birgalikda daraxt ekdilar. Marosim O‘zbekiston va Finlyandiya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga intilishning, ikki mamlakat va xalq o‘rtasidagi do‘stlik hamda o‘zaro anglashuv mustahkamlanib borayotganining ramzi bo‘ldi. Shu kuni Finlyandiya Respublikasi Prezidenti “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo‘ydi. Oliy martabali mehmon mamlakatimiz o‘tmishi va kelajakka ishonch timsoли bo‘lgan hamda ulug‘ ajdodlarimizning yorqin siymosini jahonga namoyish etuvchi mazkur monument mazmun mohiyatini yuqori baholadi. Aleksandr Stubbning mamlakatimizga rasmiy tashrifi doirasida Markaziy Osiyo xalqaro institutida “Markaziy Osiyo va Shimol mamlakatlari: yangi hamkorlik istiqboli” mavzusida davra subhati ham bo‘lib o‘tdi. Unda Prezident Aleksandr Stubb ham ishtirok etdi. Finlyandiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Stubb Toshkentda o‘tkazilgan O‘zbekiston — Finlyandiya biznes forumida ham qatnashdi. Shu bilan Finlyandiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Stubbning mamlakatimizga rasmiy tashrifi yakunlandi.

Ziyoulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘ZA muxbirlari



SAMARQANDNING SIVILIZATSIVAVIY RUHI UNESCO TAMOYILLARIGA TO‘LIQ MOS KELADI

Xorijiy ekspert doiralari vakillari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqandda ochilgan UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasidagi nutqi haqida

30-oktyabr kuni qadimiy Samarqandda UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochildi. Bu tashkilotning 40 yildan so‘ng birinchi marta Parijdan tashqarida o‘tkazilgan eng yirik xalqaro forumidir. Ushbu tadbir nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim bosqich bo‘ldi. Chunki u o‘zini muloqot, madaniy xilma-xillik va barqaror rivojlanish maydoni sifatida tobora ko‘proq namoyon etmoqda. Konferensiya ishtirokchilari va xalqaro ekspertlar forumning tashkiliy darajasini yuqori baholadilar va Samarqandda bunday keng ko‘lamli anjuman o‘tkazilishi O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro‘si ortib borayotganini aks ettirishini ta‘kidladilar.

Xalqlarni birlashtirish, o‘zaro tushunishni mustahkamlash va madaniy merosga hurmat bilan yondashishga aylangan g‘oyalarni bildirgan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqiga alohida e‘tibor qaratildi. Anjumanning xorijiy ishtirokchilari va xalqaro ekspertlar ta‘kidicha, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar dasturiy xususiyatga ega bo‘lib, gumanitar sohada o‘zaro ta‘sir uchun yangi vektorni belgilaydi va mamlakatning tinchlik, ta‘lim va madaniy merosni asrab-avaylashga sodiqligini namoyish etadi.

► Davomi 2-betda

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING MILLIY MODELI

NEGA TADBIRKORLIK ASOSIY TAYANCH SIFATIDA TANLAB OLINDI?

Boshpanasiz, tibbiy va ta‘lim xizmatlaridan foydalanish u yiqda tursin, hatto to‘yib ovqatlanishga imkoni yo‘q, o‘ta og‘ir sharoitdagi odamlar yoki oilalarga nisbatan “qashshoq” atamasi qo‘llanadi. Xayriyatki, bizning tilimizda qashshoq so‘zi deyarli uchramaydi. Yurtimizda bunday qatlam mavjud ham emas. Milliy mentalitetimiz, qolaversa, jamiyatimizda qiynalganlarga ko‘maklashish, taqdiriga befarq bo‘lmaslik kabi ezgu ishlar, daxldorlik hissi yon-atrofimizda kimningdir ko‘chada qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.



Kambag‘allikka kelsak, bu — boshqa masala. Mamlakatimizda qashshoq qatlamning yo‘qligi jamiyatimizda kambag‘al oilalar uchramasligini anglatmaydi. Eng rivojlangan davlatlarda ham ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz, iqtisodiy imkoniyati cheklangan, daromadi belgilangan minimal

iste‘mol xarajatidan past qatlam mavjud. Kambag‘allik shu kabi qator mezonlarga ko‘ra belgilanadi. Bundan 8-9 yil oldin “kambag‘al oila” degan ibora, hatto lug‘atimizda yo‘q edi. Bu mamlakatimizda kambag‘allik uchramagani, hamma joy obod, turmush farovon

bo‘lganidan emas, shunchaki kambag‘allik — yopiq mavzu, u haqda og‘iz ochish mumkin emas edi. Ammo oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi. Har qanday muammo tan olimmaguncha uni hal etib bo‘lmasligi ham ayni haqiqat.

► Davomi 3-betda

MA‘RIFATLI KELAJAKNI BIRGALIKDA QURISH ISTAGI



Samarqand shahrida bo‘lib o‘tayotgan UNESCO Bosh konferensiyasi tarixiy voqea sifatida yodda qolmoqda. Bu — 40 yilda ilk bor Parijdan tashqarida o‘tkazilgan anjuman bo‘lib, uni o‘tkazish uchun Samarqandning tanlanishi ramziy va ma‘naviy jihatdan juda katta ahamiyatga ega.

► Davomi 2-betda





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Munosabat

MA’RIFATLI KELAJAKNI
BIRGALIKDA QURISH ISTAGI

Nozima MURATOVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
prorektori

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, aynan mana shu shaharda jahonning ilg‘or fikr egalari, siyosiy va ilmiy yetakchilari, ziyolilar, faol ayollar va yoshlar, madaniyat va ta’lim ekspertlari yig‘ilib, XXI asrning eng muhim masalalariga yechim izlamog‘da.

Tadbirming ochilish marosimida Prezidentimizning natijani ehitib, bu sessiyaning falsafiy mohiyatini yanada teran his qildim. E’tirof etilganidek, davlatimiz rahbari UNESCO faoliyatiga mutlaqo yangicha ruh, ya’ni insonparvar va intellektual yondashuv kiritdi.

Nutqdagi bir nechta muhim tashabbuslar diqqatimni tortdi. Birinchidan, sun’iy intellekt va axborot jarayonlari haqidagi g‘oya. Bu faqat

texnologiya emas, balki axloqiy va ma’naviy mas’uliyat masalasi hamdir.

Ikkinchidan, mediata’lim va axborot savodxonligi insonning tanqidiy fikrlash madaniyatini shakllantiradigan eng muhim vosita sifatida ko‘rsatiladi.

Uchinchidan, ayollarning ilm-fandagi ishtiroki mamlakat taraqqiyotidagi hal qiluvchi omil ekanini ta’kidlandi. Shuningdek, inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq platformasini yaratish va UNESCO huzurida “Lider ayollar akademiyasi”ni tashkil etish tashabbusi, ayniqsa, men uchun muhim bo‘ldi. Chunki bu g‘oyalarni inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

UNESCO Bosh direktori Odri Azule XXI asrning dolzarb masalalariga juda muhim nuqtaiy nazaridan yondashdi. Uning “Bugungi kunda sun’iy intellekt va axborot texnologiyalari faqat imkoniyat emas, balki mas’uliyatni ham talab qiladi. Axborotni qabul qilish, tarqatish va shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish madaniyati — yangi asr axloqiga aylanishi lozim” degan so‘zlari diqqatimni tortdi. Ushbu fikrlar mediata’lim bo‘yicha mutaxassis sifatida men uchun juda dolzarb bo‘ldi. Bu aslida UNESCOning zamonaviy vazifalari axborot oqimida insonni yo‘qotmaslik, haqiqatni muhofaza qilish va axloqni texnologiyadan ustun qo‘yish deganidir.

Sessiyaning keyingi muhokamalarida global muammolar, madaniy merosni muhofaza qilish, inklyuziv jamiyat qurish va texnologiyalarni inson manfaatini yo‘lida ishlatish masalalari ko‘tarildi. Hozirgi siyosiy keskinlik va mojoralar nafaqat odamlar, balki insoniyatning madaniy xotirasiga — muqaddas qadamlar va hujjatli merosga ham zarar yetkazayotgani haqida juda jiddiy fikrlar yangradi. Bu mulohazalar yana bir haqiqatni anglatdi: madaniyat va axloq — insoniyatning



yagona qalqoni. Ilm, ta’lim va axborot sohasi bu qalqonni mustahkamlashi shart.

UNESCO bugun nafaqat madaniyat yoki ta’lim, balki butun insoniyatning ma’naviy kelajagi uchun mas’ul tashkilotdir. Samarqand sessiyasidagi muhokamalar shunga ishora qildi. Shu jihatdan Prezidentimiz nutqi ham, Odri Azule fikrlari ham, global masalalar bo‘yicha sessiya xulosalari ham — barchasi yagona umumiy g‘oyani ta’kidlaydi: insonparvar taraqqiyot va ma’rifatga asoslangan kelajakni birgalikda qurish zarur.

Mediata’lim zamonaviy jamiyat madaniyatining ajralmas qismi, insonparvarlik g‘oyalarning amaldagi ifodasidir. Samarqandda yangragan har bir nutq, har bir fikr taraqqiyot faqat texnologiyadan iborat emas, uning asosida ma’naviyat, madaniyat va inson qadri turadi degan tamoyilning ahamiyatini ko‘rsatdi.

Yetti yilga yaqin muddat UNESCO loyihalarining mediasavodxonlik bo‘yicha milliy konsultanti sifatida ishlab, 43-sessiyadan chiqqan xulosalarni shuki, “Insoniyatning kelajagi — axborotni qanday qabul qilayotganimizda, ilmiy qanday to‘g‘ri yo‘naltirayotganimizda va ma’naviyatni qay darajada asray olayotganimizda namoyon bo‘ladi. Jahonni o‘zgartirish uchun eng katta kuch — bu bilim, axborot va ma’rifatga bo‘lgan insoniy munosabatdir”. Samarqanddagi 43-sessiya bu haqiqatni yana bir bor isbotladi.

UNESCO xudo xalqlarini birlashtirib, fan, ta’lim va madaniyat orqali tinchlik va barqarorlikni saqlash yo‘lida ishlamog‘da. O‘zbekiston uchun bu konferensiya xalqaro nufuzni mustahkamlash bilan birga milliy ilmiy va ma’naviy siyosatni jahon standartlariga mos ravishda rivojlantirish imkoniyatidir.



Zafar XUDOYBERDIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining bugun eng muhim masalalardan biri bo‘lgan iqlim inqiroziga qarshi birgalikda kurashish borasidagi taklif ham g‘oyat muhim. Anjumanda bildirilgan barcha tashabbuslar har doimgidek dolzarb.

SAMARQANDNING CIVILIZATSIYAVIY RUHI

UNESO TAMOYILLARIGA
TO‘LIQ MOS KELADI

Boshlanishi 1-betda

Aleks MATERSSON,
Markaziy Osiyo mintaqasidagi
ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy jarayonlarni
o‘rganuvchi shvetsiyalik ekspert va biznes
strateg:

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning UNESCO Bosh konferensiyasining qadimiy Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan tarixiy 43-sessiyasi ochilishi marosimidagi nutqi strategik qarashlari va xalqaro hamjamiyatga zamonaviy dunyoda sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotning ahamiyati haqida ilhomlantiruvchi xabari bilan ajralib turdi.

Ishonchim komilki, O‘zbekiston yetakchisi zamonaviy dunyoda xalqaro hamkorlik va barqaror rivojlanishni mustahkamlashda madaniyat, ta’lim va fanning rolini chuqur tushangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Samarqand tashabbuslari tarixiy va madaniy merosni saqlash, yoshlar salohiyatini rivojlantirish va xalqlar o‘rtasida o‘zaro hurmatni rivojlantirish bo‘yicha asosiy g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan holda global miqyosda madaniy va ilmiy diplomatiyaning rolini kuchaytirishga qaratilgan. Ushbu tashabbuslar, shuningdek, Samarqandning noyob sivilizatsiya merosini — dunyolar chorrahasini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bu UNESCO missiyasiga to‘liq mos keladi.

Bosh konferensiyaning ushbu tarixiy sessiyasini Samarqandda o‘tkazish O‘zbekistonning global gumanitar tashabbuslarning faol ishtirokchisi sifatidagi xalqaro mavqei yanada mustahkamlashga katta hissa qo‘shadi.

Antonio ALONSO,
San-Pablo universiteti professori,
Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha
mutaxassis:

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasi ochilishi marosimidagi nutqidan ilhomlandim. Uning so‘zlari shunchaki siyosiy bayonotdan ko‘ra ko‘proq, balki gumanizm, fan va ta’limning ilhomlantiruvchi chaqiriq bo‘lib tuyuldi.

Konferensiyaning tarix, madaniyat va bilim davrlar jonli muloqotida birlashadigan Samarqand shahrida o‘tkazilayotgani ramziy ma’noga ega. Bu yerda o‘zaro hurmat va hamkorlik g‘oyalari nafaqat muhokama qilinadi, balki amalda ham qo‘llaniladigan global sivilizatsiya nafasi chinakamiga seziladi. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish, fan va madaniyat sohasidagi yetakchi ayollarni qo‘llab-quvvatlash, nomoddiy merosni saqlash va sun’iy intellekt axloqini tushunishga qaratilgan tashabbuslar ham muhim. Bu sohalar zamonaviy ilmiy tendensiyalar bilan uyg‘unlashadi va UNESCOning asl ruhini — texnologiya va insoniyatni, innovatsiya va an’analarni birlashtirish istagini aks ettiradi.

UNESCOning Ayollar liderligi akademiyasi va Raqamli meros bo‘yicha xalqaro institutini tashkil etish taklifi ham juda dolzarb. Bunday tashabbuslar ilm-fan nafaqat bilim vositasi, balki madaniyatlar va xalqlar o‘rtasidagi ko‘priklar bo‘lgan yangi avlod tadqiqotchilari va o‘qituvchilari uchun zamin yaratadi.

Ispaniya Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari asrlar davomida bir-birini ilhomlantirgan hamda boyitgan mamlakatlardir. Shuning uchun O‘zbekiston rahbari nutqida ifodalangan g‘oyalarni demda chuqur aks sado beradi. Uning so‘zlari tarixiy tajribaning donoligini va ilm-fan, madaniyat va ta’lim xalqlar o‘rtasida tinchlik, o‘zaro tushunish va hamkorlikning poydevoriga aylanadigan kelajakka qarashni ifodalaydi.

Ishonchim komilki, Samarqand konferensiyasi global hamkorlikni rivojlantirishda burilish nuqtasi bo‘ladi va “Samarqand ruhi” intellektual va yangi madaniy Uyg‘onish davriga poydevor qo‘yadi.

Xun MUCHIN,

Shanxay kreativ iqtisodiyot uyushmasi
direktori o‘rinbosari, Shanxay san’at
kolleksiyalari muzeyi direktori:

— Ta’lim, fan va madaniyat sohasida qarorlar qabul qilishning asosiy global platformasi bo‘lgan UNESCO Bosh konferensiyasini Samarqandda o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror chuqur ramziy ahamiyatga ega voqea bo‘ldi. Bu shunchaki joyning o‘zgarishi emas, balki Markaziy Osiyoning o‘zib borayotgan ta’sirini idrok etish va tan olishning global madaniy modelini qayta ko‘rib chiqish belgisidir. O‘zbekiston uchun forumga mezbonlik qilish uning madaniy merosni himoya qilish, ta’lim tizimini rivojlantirish va hamkorlikni kuchaytirishdagi yutuqlarini xalqaro miqyosda tan olish akti bo‘ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tarixiy yodgorliklarni tiklash va madaniy joylarni raqamlashtirishni qamrab olgan keng ko‘lamli tashabbuslari Samarqand, Buxoro va Xiva kabi dardonalarga yangi hayot bag‘ishladi.

O‘zbekiston madaniy merosni zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy hayotga maqsadli ravishda integratsiyalashtirmog‘da, uni rivojlantirish resursiga aylantirmog‘da. Samarqandda “Boqiy shahar” kabi madaniy majmua yaratilishi buning yaqqol namunasidir. Ushbu loyiha an’anaviy me’moriy shakllarni zamonaviy infratuzilma talablari bilan muvaffaqiyatli birlashtirib, nafaqat sayyohlarni o‘ziga jalb qiluvchi, balki xalqaro konferensiyalar va ilmiy almashinuvlar uchun joy bo‘lib xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasi ochilishi marosimidagi nutqida ta’kidlaganidek, zamon bizdan UNESCOning global maqsadlariga erishishimizni va ko‘p qirrali hamkorligimizni yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Bu fikrlarda O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan, an’analar va innovatsiyalarni uyg‘unlashtirgan aniq takliflarda mukammal aks etgan.

Kelajakka e’tibor qaratgan holda Toshkent hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishni taklif qilmoqda, inklyuziv ta’limni rivojlantirish va UNESCOning ixtisoslashtirilgan platformasini yaratish, “Sun’iy intellekt — maktab” loyihasini amalga oshirish va Kasbiy ta’lim bo‘yicha jahon sammitini o‘tkazish orqali sun’iy intellektni keng joriy etishni qo‘llab-quvvatlamog‘da. Shu bilan birga, mamlakat merosni saqlashga sodiqligini kuchaytirmog‘da, Xalqaro hujjatli meros kunini belgilash va Raqamli meros xalqaro institutini yaratishni taklif qilmoqda. UNESCOning Ayollar yetakchiligi akademiyasini tashkil etish, UNESCOning Ekologik poytaxt unvonini targ‘ib qilish va Mediasavodxonlik strategiyasini ishlab chiqish tashabbuslari ham shunga o‘xshash keng qamrovli yondashuvni namoyish etadi.

Mustaxab aytganda, Samarqand tajribasi va ushbu konferensiyada e’lon qilingan tashabbuslar zamonaviy dunyo barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishi uchun zarur bo‘lgan modeldir.

Yuriy SIGOV,

Rossiya davlat gumanitar universitetining
xalqaro aloqalar bo‘yicha eksperti:

— Samarqand UNESCOning Parijdagi bosh qarorgohidan tashqarida qir yildan so‘ng ilk bor o‘tkazilayotgan Bosh konferensiyasiga mezbonlik qilmoqda. Shu dalillning o‘zi ham O‘zbekistonning ham mintaqada, ham global miqyosda madaniyat, san’at va ta’limni rivojlantirishdagi roli nihoyatda oshgan xalqaro obro’sidan dalolat beradi. Bosh konferensiyaning ochilishida so‘zga chiqqan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev UNESCO o‘zining 80 yilligini nishonlayotgani so‘nggi yillarda ta’lim, fan, madaniyat, san’at va axborot sohasidagi global hamkorlik, shuningdek, o‘zaro ishonch va birdamlik uchun muhim global initsiativa aylaniganini ta’kidladi. Bu butun dunyo bo‘ylab ta’limni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi va turli mamlakatlar va



xalqlar o‘rtasida sivilizatsiyalararo muloqotni faol ravishda qo‘llab-quvvatlaydi.

Prezident haqli ravishda O‘zbekiston tashabbusi bilan “Xiva jarayoni: Markaziy Osiyoda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish” (2021) rezolyutsiyasi, Erta bolalikni parvarish qilish va ta’lim bo‘yicha Toshkent deklaratsiyasi va Xalqaro axborotga universal kirish kunini nishonlash to‘g‘risidagi Toshkent deklaratsiyasi kabi muhim hujjatlar qabul qilinganini ta’kidladi.

Menimcha, UNESCO Bosh konferensiyasini Samarqandda o‘tkazish O‘zbekistonning madaniy va ta’lim tashabbuslarini rivojlantirishda ishonchli sherik sifatidagi umumiy imijini targ‘ib qilishda, ham Samarqandning o‘zi, ham respublika salohiyatini oshirishda juda muhim rol o‘ynaydi. Axir xorijiy mehmonlar nafaqat rasmiy uchrashuvlarda ishtirok etadilar, balki yangi O‘zbekistonni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishadi. Bu har qanday rasmiy reklamadan ko‘ra samaraliroq bo‘ladi.

Tazin AXTAR,
“Pakistan in the World” gazetasi
muharriri:

— Xalqaro munosabatlar va gumanitar hamkorlik bo‘yicha pokistonlik mutaxassis sifatida men O‘zbekiston Prezidentining UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasi ochilishi marosimidagi nutqidan chuqur taassurot oldim.

Avvalo, qadimiy Samarqand forum o‘tkaziladigan joy sifatida ajoyib tanlangan. Bu nafaqat UNESCOning jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan shahar, balki sivilizatsiyalarning tirik eksperimental pidiyasi, ilm-fan, san’at va gumanizm beshigi.

O‘zbekiston Prezidenti haqli ravishda ta’kidlaganidek, Bosh konferensiya 40-yildan keyin birinchi marta UNESCO qarorgohidan tashqarida o‘tkazilmoqda va uning Samarqandda o‘tkazilishi xalqaro hamjamiyatning zamonaviy O‘zbekistonning islohotlari hamda ochiqchiliga ishonchning kuchli ramziga aйлadi.

Davlatimiz yetakchisi o‘z nutqida zamonaviy dunyo duch kelayotgan eng dolzarb muammolarga, jumladan, xalqaro konsensus

mexanizmlarining faillashishi, turli mojoralar tufayli madaniy yodgorliklarning vayron bo‘lishi hamda bilim va texnologiyalarga kirishda tengsizlik kuchayib borayotganiga to‘xtaldi. Bu so‘zlar, ayniqsa, davom etayotgan gumanitar inqirozlar fonida juda dolzarb edi. Prezident Shavkat Mirziyoyev nafaqat muammolarni bayon qildi, balki aniq qadamlarni ham taklif etdi — UNESCOning Inklyuziv ta’lim platformasini yaratishdan tortib, Xalqaro raqamli meros institutini tashkil etish tashabbusigacha.

Nutqning ta’lim tizimiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga bag‘ishlangan qismi, ayniqsa, ta’sirli edi. “Sun’iy intellekt — maktab” loyihasini yaratish va professional ta’lim bo‘yicha jahon sammitini o‘tkazish g‘oyasi insoniyat kelajagi ta’lim va texnologik kompetensiyalar bilan shakllanishini tan olgan rahbarning strategik tafakkurini namoyish etadi.

Madaniy merosga ta’sir ko‘rsatayotgan iqlim inqiroziga javoban global “UNESCO ekologik poytaxti” tashabbusini amalga oshirish taklifi ham muhimdir.

Prezidentning bag‘rikenglik va o‘zaro tushunish tamoyillarini ilgari surish bo‘yicha tashabbusi, shuningdek, O‘zbekiston ilmiy markazlari — Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy va boshqalar salohiyatidan islom haqidagi noto‘g‘ri tasavvurlarga qarshi kurashish uchun foydalanishga chaqirg‘i alohida e’tiborga loyiq. Bunday yondashuv Pokistonning madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash va musulmon jamoalariga nisbatan kamstishga qarshi doimiy ravishda kurashib kelayotgan pozitsiyasiga mos keladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi forum ishtirokchilariga shunchaki murojaat

emas, balki gumanizm, innovatsiya va global birdamlikni birlashtirgan konseptual harakatlar dasturi bo‘ldi. Bu O‘zbekistonning xalqaro maydondagi intellektual va axloqiy rolining o‘zib borayotganini namoyish etadi.

Vusal TAGIBAYLI,
ozarbayjonlik siyosatshunos va “hafta.az” elektron nashri muxbiri:

— Tashkilotning 80 yilligi munosabati bilan Samarqandda UNESCOning 43-Bosh konferensiyasi o‘tkazilishi Markaziy Osiyo markazida joylashgan O‘zbekistonning xalqaro nufuzi ortib borayotganining yaqqol dalilidir. O‘zining boy madaniy merosi bilan O‘zbekiston butun dunyodan kelgan sayyohlar uchun sevimli maskanga aylandi. Markaziy Osiyoning qadimiy sivilizatsiyasi ularni saqlab qolgan bu ajoyib mamlakat mintaqada uchun ilm-fan va madaniyat markazi bo‘lib qolishga intilayotgani alohida e’tiborga loyiqdir. Bugungi tadbirming O‘zbekiston uchun ahamiyatini bir necha jihatdan baholash mumkin. Birinchidan, bu O‘zbekistonning siyosiy maydonda qo‘lga kiritgan global mavqeiini aks ettiradi. Mamlakatning davom etayotgan islohotlari va dunyoga ochiqlik siyosati xalqaro hamjamiyat e’tiboridan chetda qolmadi.

Ikkinchidan, bu mintaq tarixidagi eng yirik konferensiya. Bunday xalqaro tadbirlar mintaqaga qiziqish ortishiga va xorijiy investitsiya oqimiga hissa qo‘shadi.

Uchinchidan, global tashkilot bo‘lgan UNESCOning 40 yildan so‘ng birinchi bor Parijdin tashqarida, aynan Samarqandda o‘z konferensiyasini o‘tkazayotgani shaharning rivojlanayotgan madaniy markaz ekanidan dalolat beradi.

Menimcha, UNESCO Bosh konferensiyasini Samarqandda o‘tkazish O‘zbekiston va uning rahbariyati uchun shubhasiz muvaffaqiyat bo‘lib, xalqaro hamjamiyatga mamlakat madaniyati, turmush tarzi va siyosiy va iqtisodiy yutuqlari bilan ko‘proq tanishish imkonini beradi.

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING MILLIY MODELI

NEGA TADBIRKORLIK ASOSIY TAYANCH SIFATIDA TANLAB OLINDI?



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

2020-yilda davlatimiz rahbari bu masalani kun tartibiga olib chiqdi va tegishli chora-tadbirlar ko‘rish uchun mutasaddirlar oldiga kechiktirib bo‘lmaz vazifalar qo‘ydi. Shundan so‘ng uzoq yillar oshkor etilmagan raqamlar aytilди. Yurtimizda birinchi marta kambag‘allik ko‘rsatkichi e‘lon qilingani ko‘pchilik uchun kutilmagan voqea bo‘ldi. Avval hayrat bilan qabul qilinish uchun raqam va tahlillar keyinroq amaliy tashabbuslarga aylandi. Kambag‘allar sonini kamaytirishga e‘tibor kuchaydi. Maxsus dasturlar qabul qilinib, alohida tizim yaratildi. Kambag‘allikka qarshi qat‘iy kurash boshlandi. Natijada 2022-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 17 foizdan 14 foizga kamayishiga erishildi.

Bu raqam bugunga kelib yanada qisqardi. 2024-yilda mazkur ko‘rsatkich 8,9 foizga tushirildi. Joriy yil yakunigacha kambag‘allik darajasini 6 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan. Shu yil 17-sentabr kuni davlatimiz rahbari Namangan shahrida bo‘lib o‘tgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumi ochilish marosimidagi nutqida bu yo‘nalishda erishilayotgan yutuqlarga alohida to‘xtalib, “Bunday keng ko‘lamli sa‘y-harakatlarimiz hisobiga O‘zbekiston 2030-yilga qadar kambag‘allikni 2 karra qisqartirish bo‘yicha olgan majburiyatini barvaqt bajarishga harakat qilayapti. Shularni inobatga olib, bugun yangi, yanada yuqori marrani belgilab olishga tayyormiz. 2030-yilga borib, xalqaro mezonlarga ko‘ra, O‘zbekistonda mutlaq kambag‘allikka to‘liq barham berishga barcha imkoniyatimiz bor va biz buni, albatta, uddalaymiz”, deya ta’kidladi.

Mazkur natijalarga, albatta, iqtisodiy farovonlik orqali erishilmoqda. O‘tgan davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti 2 karra o‘sgani bunda muhim omil bo‘ldi. Shu yil yakuni bilan aholi jon boshiga daromad 3500 dollarga yetishi kutilmoqda. Qisqa muddatda yangi tashabbus va tajribalarni sinovdan o‘tkazib, dunyodagi ijobiy yutuqlarni o‘rganib, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yangi O‘zbekiston modeli yaratildi.

Oqar suv hamma joyni obod qiladi

Xo‘sh, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha Yangi O‘zbekiston modeli qanday yaratildi? Xalqaro ekspertlar, yirik tuzilmalar va davlatlar e‘tirof etayotgan o‘ziga xos bu tajribaning mohiyati nimada?

Avvaliga Xitoy tajribasi asosida boshlangan bu ishlar bugunga kelib milliy harakatlarga aylangan rost. Bunda eng asosiy jihat kambag‘allikni qog‘ozda emas, amalda qisqartirish bo‘yicha bor imkoniyatlar safarbar etilgani va bu har bir hudud, mahalla, xonadonga kirib borayotganida ko‘rinadi. Yurtimiz bo‘ylab, avvalo, qiynalgan oilalar ko‘ryxati, turli toifadagi daftarlarni tuzilgan bo‘lsa, keyinchalik mahallalarning drayveri, loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi, odamlarni oldin ish bilan ta‘minlab, keyin boy qilish bo‘yicha ilg‘or amaliyot shakllantirildi.

Umuman, kambag‘allikni qisqartirishda tanlab olingan yo‘nalishlar ko‘p edi. Shulardan biri hamda eng asosiyshi — kichik va o‘rta biznesni rag‘batlantirish, yurtimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, aholi

orasida tadbirkorlikni rivojlantirish etib belgilandi. Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga chiqib, o‘tgan yillarda davomida bu yo‘nalish iqtisodiyotning drayveriga aylandi.

Yurtimizda kambag‘allikni qisqartirishda aynan tadbirkorlikka urg‘u berilgani xalqaro maydonda ham e‘tirof etilmoqda. Boisi, har bir ishbilarmon o‘zi daromad manbaiga ega bo‘lish barobarida faoliyatini kengaytirib, ko‘proq ish o‘rni ochadi. Ya‘ni davlat biznesga sharoit yaratib beryapti, tadbirkorlar esa o‘ziga ijtimoiy mas‘uliyat olib, ehtiyojmand aholini ishli va daromadli qilishda ko‘makchi bo‘lmoqda. Shunday samarali hamkorlik tufayli joriy yilning o‘zida 270 mingdan ziyod kambag‘al oila a‘zosi doimiy ishli bo‘lgan. Uchinchi muhim jihati esa, tadbirkorlar hududlar va iqtisodiyot rivojida muhim lokomotiv vazifasini o‘tamoqda.

Shu bois, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarning dastlabki davridayoq aholi orasida ishbilarmonlik qobiliyatini oshirish bo‘yicha qator dasturlar ishga tushirildi. Ammo tadbirkor bo‘lish oddiy odam u yozda tursin, mablag‘ga ega kishilar uchun ham oson emas. Bunday vaziyatda davlat odamlarni ham biznesga o‘qitish, ham qiziqqan sohasiga yo‘naltirish, ham moliyaviy ko‘maklashish vazifasini zimmasiga oldi. Odamlarda esa ana shu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanib, mehnat va harakat qilish qolgandi.

Oilalarning o‘z xonadonida biznes qilib, daromad topishi uchun sharoit, imkoniyatlar yaratilib, imtiyozli mablag‘lar ajratildi. Natijada o‘ta kambag‘al sharoitga tushib qolgan, har qanday yordamdan umidini uzgan minglab oilalarda ishonch paydo bo‘ldi. Bugun ularning aksariyati doimiy daromad manbaiga ega, o‘zi va oilasidan tashqari qo‘shimcha ish o‘rinlari ochayotgan tadbirkorlarga aylandi.

— Mehnat ham, intilish ham sharoit yaratilgan joyda bo‘ladi. Oddiy odamlar uchun biror daromadli ish boshlash oson emas. O‘ziga yarasha mablag‘, yer, bino, xomashyo va hokazo kerak, — deydi Navoiy viloyati Xatirchi tumani Zarafshon mahallasida yashovchi Husniya Razzoqova. — Bugun ana shu imkoniyatlarning barchasi berilgan. Yaqin yillargacha qiynalgan oilalar uchun tadbirkorlik yetib bo‘lmaz orzu edi. Shu bois, qora ish topsa ham shukr qilardi. Bugun esa eng chekka hududlarda ham o‘z kasb-kori, biznesi bilan to‘zg‘origa daromad topayotgan, yurt ravnagiga hissa qo‘shayotgan tadbirkorlar safi kengayib bormoqda. O‘zim qancha nochor oilalarni bilaman: imtiyozli kredit hisobidan ish boshlab, hozir ish o‘rinlari ochyapti. Avvallari asosan dehqonchilik, chorvachilik ortidan kun ko‘rganmiz. Topganimiz ro‘zg‘orga bazo‘r yetardi. Bugun mahallamizdagi aksariyat oilalar baliqchilik qilib, qo‘shimcha daromad topyapti, tadbirkorga aylangan. To‘g‘ri, oldin ham odamlar baliq boqishni bilgan, lekin buning uchun imkoniyat, mablag‘ bo‘lmagan.

Mahallamizdagi o‘rmon xo‘jaligiga tegishli tashlandiq joyda baliq yetishtirishga imkoniyat berishdi. Imtiyozli kredit hisobidan ishini bir hovuzga chavaq tashlashdan boshladim. Hozir 5 ta hovuzda baliq yetishtirib, bozorga tonnalab mahsulot yetkazib beraman. Besh kishini ish bilan ta‘minladim. Shuning ortidan yaxshi daromad topaymiz. Yoshim 70 dan oshganiga qaramay, shiyotim baland. Bunday sharoitlar yaratilgan vaqtda faqat harakat qilish kerak. Ko‘lmak suvdan foyda yo‘q, oqar suv bo‘lish lozim. Oqar suv hamma joyni obod qiladi.



Hududlar tajribasi — noyob amaliyot

Kasbimiz taqozosiga ko‘ra ko‘plab hududlarda bo‘lamiz. Kuzatuvimizga ko‘ra, odamlarning biznes qilishga ishtiyoqi baland, bunga qobiliyati ham yetarli. Biri uyida chevarlik, boshqasi hunarmandlik, yana biri ishlab chiqarish bilan shug‘ullanyapti. Aksariyat oilalar esa tomorqadan umumli foydalanib, yil — o‘n ikki oy daromad topmoqda. Ularni bunga rag‘batlantirayotgan omil esa sharoit, imkoniyat va imtiyozlardir.

Avvalroq ijtimoiy daftarlardan birida turgan, sharoiti og‘ir, imkoniyati cheklangan bu odamlar kichik turki, moddiy yordam, alohida e‘tibor sabab endi kambag‘allar ro‘yxatidan chiqib, o‘zi va yaqinlari bandligini ta‘minlamoqda. Bir martalik ijtimoiy yordam evaziga kun ko‘rgandan ko‘ra, kichik bo‘lsa-da biznesiga egalik ularning o‘ziga ham ma‘qul. Axir mustaqil ishiga, doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishni kim ham istamaydi.

Yurtimizdagi har bir xonadon, har bir oila bilan individual reja asosida ishlab, daromadini oshirish uchun yetarli resurs ajratilayotgani boisi shunda. Odamlar o‘z xonadonida daromadga ega bo‘lishi uchun imkoniyat va imtiyozlar yaratib berilyapti. To‘rtta hudud — Sayxunobod, G‘ijduvon, Uychi va Zarbdor tajribasi ommalashtirilib, shular asosida aholiga imtiyozli mablag‘ ajratilyapti. Birgina Sayxunobod tajribasi misolida aytsek, odamlar hayotiga juda tez kirib borgan ushbu amaliyot kichik tomorqa ortidan ham tadbirkorga aylanish mumkinligini yaqqol isbotladi.

Bugun sayxunobodliklarning aksariyati xonadonidagi tomorqadan yilda bir necha marotaba hosil olib, yaxshigina daromad topyapti. Kimlar uchun bu qo‘shimcha mablag‘ manbaiga aylangan bo‘lsa, boshqalar agrotadbirkor darajasigacha chiqqa oldi. Tomorqa egalari tomonidan issiqxona qurilishi uchun olingan qarzarlar ham o‘z vaqtida to‘lanib, hatto ayrimlari muddatidan oldin so‘ndirilayotgani buning isboti.

— Tomorqamdagi to‘rt sotix maydonga issiqxona qurgandim, — deydi Sayxunobod tumanidagi Farovon mahallasida yashovchi Yusuf Mirzayev. — U yerga ertapishar pomidor ko‘chati ekdim. Uch marta hosilini yig‘ishtirib olganimdan so‘ng issiqxona uchun sarflagan mablag‘im qoplandi. Shundan keyin yana bir necha marta hosil yig‘ishtirib oldik. Bundan tashqari, ochiq maydonga bulg‘or qalampiri, gamrdori, baqlajon ham ekdik. Mahsulotlarni ichki bozorga chiqaramiz. Daromadimiz yaxshi.

“Olg‘a bos” MFYda yashovchi Umidjon Xudoyberdiyev esa kuz-qish oylarida plyonka ostida sabzi yetishtiradi. Xalq tilida bu “dugay usuli” deyiladi. Yerdan bir necha metr balandlikda plyonka tortilib, ichida mahsulot yetishtiriladi. Katta issiqxonaga nisbatan mehnati ham, xarajati ham kam bo‘lar ekan.

Ammo mahsulot yetishtirish va pishib yetilish vaqti issiqxonaniki bilan bir xil, dalanikidan esa bir oycha erta yetilib, tayyor bo‘ladi.

— Hovlimizda 10 sotix tomorqa bor. Shundan 4 sotixidagi kichik issiqxonada sabzi yetishtiramiz, — deydi Umidjon Xudoyberdiyev. — Avval issiqxona maydoni kichikroq edi, Sayxunobod tajribasi yo‘lga qo‘yilganidan keyin bankdan kredit olib, yanada kengaytirdik. Shu joyning o‘zidan yilda ikki marta hosil olaman. May oyi oxirlarida sabzini yig‘ishtirib olgach, makkajo‘xori ekamiz. Tomorqaning ochiq yer maydonida bahorga yaqin kartoshka ekiladi. Xullas, tomorqadan yil davomida daromad olamiz.



Eng katta ko‘mak aholi bandligini ta‘minlashda

Jahon amaliyotida ishsizlik kambag‘allikning asosiy omillaridan biri sifatida talab qilinadi. Jamiyatda ishsiz qatlam qancha ko‘p bo‘lsa, kambag‘allar soni shuncha ortadi. O‘sha hududda rivojlanish ham, taraqqiyot ham sezilmaydi. Bunday vaziyatda odamlar yoki nochorlikka ko‘nikib yashaydi yoki ish izlab xorijga chiqib ketadi. Mamlakatimiz aholisining bir qismi yaqin yillargacha migrant sifatida chet elda mehnat qilgani bunga misoldir.

Yurtimizda tadbirkorlar safi kengaygani sari turli tarmoqlarda bo‘sh ish o‘rinlari vujudga kela boshladi. Ularga, avvalo, kambag‘al oilalar a‘zolari, ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi jalb etildi. Kam ta‘minlangan oilalar a‘zolarini ishli qilgan biznes egalari esa davlat imtiyozlar beryapti. Biznesni “soya”dan chiqarish bo‘yicha yangi mexanizmlar ko‘paytirilishi hisobiga o‘tgan yillarda 139 mingta korxonada ish o‘rinlari 811 mingtaga ko‘payib, 2,2 milliondan 3 millionga yetdi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 273 mingta korxona ish haqi fondini 22 foizga yoki 4,6 trillion so‘mga oshirdi. O‘tgan yili xususiy sektorda o‘rtacha oylik 4 million so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, bugun 5 million so‘mga yaqinlashdi.

Hozir tadbirkorlar haqida gap ketsa, atrofimizdagi o‘nlab, yuzlab insonlarni bemalol sanab beramiz. Chunki ular avvalgidek yashirincha va qo‘rqib emas, balki ochiq-oshkora, bevosita davlat ko‘magida, ko‘plab imtiyozlardan foydalangan holda mehnat qilyapti. Iqtisodiyot tarmoqlari rivoji, hududlar taraqqiyoti, aholi bandligini ta‘minlash hamda mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri — kambag‘allikni qisqartirishga hissa qo‘shmoqda.

— Bugun korxonamizning sanoat yo‘nalishida 120 dan ortiq kishi ishlayapti, — deydi samarqandlik tadbirkor Anvar Norboyev. — Korxonamizda uchta loyihani amalga oshirdik. Bular — energiyatejamkor transformatorlar, elektr tarmoqlarining avariasiz ishlashi uchun zarur bo‘lgan zamonaviy vakuumli ajratkichlar hamda o‘lchov transformatorlar ishlab chiqarish loyihalari. Zavodlarimiz yuqori quvvatda ishlab turibdi. Mahsulotlarimizga xorij bozorida ham talab katta. Oldimizdagi asosiy vazifa ko‘proq odamni ish bilan ta‘minlashdan iborat. Joriy yil oxiriga qadar mamlakatimizda 5 million 200 ming ish o‘rni oshish maqsad qilingan. Bunga biz ham hissa qo‘shishga tayyormiz.

Tadbirkorlarimiz orasida minglab ish o‘rinlari ochayotganlar ham bor. Davlatimiz rahbari ularni “chempion” tadbirkorlar deb atagan bejiz emas. Aksariyati ishchilari 5000 dan ziyod, yillik daromadi 1 trillion so‘mdan oshgan biznes egalari. Bunday ishbilarmonlar yirik ishlab chiqarish korxonalarida milliy brenddagi mahsulotlar ishlab chiqarish barobarida qanchadan qancha oilalarning daromadli bo‘lishi, farovon yashashiga hissa qo‘shyapti. Tarmoqlar rivoji, zamonaviy yo‘nalishlar taraqqiyoti, aholiga xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichi oshishida bevosita ishtirok etmoqda.

Sanoat inqilobining faol ishtirokchilari

Tadbirkorlikni rivojlantirishning uchinchi muhim omili sanoat tarmoqlari va infratuzilmani rivojlantirish bilan bog‘liq. Gap shundaki, tadbirkorlik subyektlari barcha sohaga kirib borar ekan, o‘sha yo‘nalishda sanoat rivojlanib, ishlab chiqarish quvvati oshadi. Birgina to‘qimachilik sanoati — bunga yaqqol misol. Bundan to‘qqiz yil oldin mamlakatimiz faqat paxta xomashyosini eksport qilgan bo‘lsa, bugunga kelib to‘qimachilik mahsulotlari bilan jahon bozorini zabt etyapti.

Sanoat tarmoqlaridagi o‘sinh ko‘rsatkichi bevosita iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Dunyodagi murakkab geosiyosiy vaziyatga qaramay, O‘zbekiston iqtisodiyoti keyingi yillarda doimiy mustasils o‘sib borayotgani zamirida shu omillar mujassam. Joriy yil birinchi yarim yilligida ham iqtisodiyotimiz 7,2 foiz o‘sgani qayd etildi.

Shu yilning 20-avgust kuni davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqida

“Adolati hakam bo‘lsa aytсин, o‘tgan sakkiz yilda qattiq mehnat va mashhaqqatlar bilan iqtisodiyotimizning ko‘plab tarmoqlarini yo‘qdan bor qildik. E‘tibor bering, bu davrda turli sohalarga 230 milliard dollar investitsiya kirib keldi, shundan 120 milliarddan ortig‘i — xorijiy sarmoya. Bir qarashda aytishga oson bo‘lgan ushbu raqamni oldinlari hisob-kitob qilish tugul tasavvur qilib ham bo‘lmadi. Lekin biz buni uddaladik. Bu yutuqlarimizning barchasi — cizlar bilan birgalikda qilgan mashhaqqatli mehnatimiz mahsuli, albatta”, dedi.

Davlat rahbari yetakchiligidagi boshlangan sanoat inqilobi mamlakatda yangi zavod va fabrikalar ish boshlashi, yirik infratuzilma loyihalari yo‘lga qo‘yilishiga sabab bo‘ldi. Bu jarayon millionlab ish o‘rinlari ochilishiga zamin yaratdi. Natijada kambag‘allik muammosini hal etishda sanoat taraqqiyoti hal qiluvchi kuchga aylanyapti. O‘tgan davrda minglab mikro va kichik korxonalar qisqa muddatda yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, katta-katta kompaniyalar bilan raqobatlasha boshladi. Masalan, 1600 ta mikro korxona bir yilda pul aylanmasini 10 milliard so‘mdan oshirib, birdan o‘rta korxonaga, 143 tasi esa 100 milliard so‘mdan oshirib, yirik korxonaga aylandi. Yana 122 ta kichik korxona oldinga ikki qadam sakrab, yirik biznes safiga qo‘shildi.

Sanoat korxonalari va zonalar paydo bo‘layotgan joylarda esa hudud infratuzilmasi yaxshilalanib, manzillar yanada olib qilinaypti. Maqsad — tadbirkorlik rivoji uchun zarur sharoit yaratish.

Masalan, Toshkent shahridagi Chilonzor tumani Beshqo‘rg‘on va Tirsakobod mahallalari hududida joylashgan sanoat zonasi avvaldan bo‘lganiga qaramay, tartibsiz egallab olingan yerlarda infratuzilma va boshqa masalalarda ko‘plab muammolar mavjud edi. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 3-iyuldagi tegishli qarori bilan sanoat hududi yangidan tashkil etilib, transport, muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l infratuzilmasi to‘liq yaxshilandi. Hozir bu manzilga ravon yo‘llar olib boradi, tunda ham chiroqlar hududni yoritib, nurafrash qiladi, bir qarashda sanoat shaharchasiga aylangan.

— Ilgari hududda yo‘llar juda yomon edi, hech kim kelishni istamasdi. Hozir har kuni hamkorlar, xaridorlar keladi, — deydi “BFB Group” kompaniyasi rahbari Fikrat Madiyev. — Oxirgi bir yilda elektr toki umuman o‘chmadi. Tadbirkorlar yanada faol ishlab, rivojlanishi uchun kerakli sharoit yaratib berildi. Buning evaziga sanoat hududida yangi korxonalar ko‘payadi, ular orqali tumanda qo‘shimcha ish o‘rinlari, soliq to‘lovchilar paydo bo‘ladi. Bu iqtisodiy farovonlikning o‘shishiga olib keladi.

Korxonamizda 40 dan ortiq turdagi mahsulot ishlab chiqariladi. O‘zbekiston bozoriga dom muqobil yo‘q tovarlar bilan yangilik olib kirishga harakat qilamiz. Ko‘plab mahsulotlarimizning nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyoda ham muqobil yo‘q. Masalan, alyumindan yasalgan basseyn qoplamasi faqat bizda ishlab chiqariladi. Alyumin qoplamali avtomatik ochib-yopiladigan bioqilimli ayvonning ham hozircha yurtimizda muqobil yo‘q. Bugun mahsulotlarimizni Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikistonga eksport qilyapmiz.

Birgina tadbirkorlikning yurtimizdagi kambag‘allikni qisqartirishdagi ahamiyati haqida aytga bo‘ladigan gaplar hali ko‘p. Yurtidoshlarimizning o‘zi ham bunga faoliyatida, turmushida amin bo‘lar ekan, izohlar, misollarnimizni yanada boyitishi mumkin.

Asosiy o‘tgan yili mamlakatimizda kambag‘allik ko‘rsatkichi 8,9 foizgacha tushgani katta natija va buni Jahon banki iqtisodchilari ham e‘tirof etmoqda. Xalqaro tahlilchilar fikricha, eng avvalo, oilalar daromadida o‘sinh, ish haqi oshirilishi yurtimizda kambag‘allikni kamaytirishning asosiy omili bo‘ldi.

O‘tgan yili noyabrda O‘zbekiston kambag‘allikka qarshi kurashda yangi bosqichni boshladi va “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi qabul qilindi. Unda ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish, 5 million 200 ming ish o‘rni ochish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu orqali joriy yil yakuniga qadar yurtimizda kambag‘allik darajasini 6 foizga tushirish ko‘zlangan. Ushbu natijalarga erishishda esa tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmon oilalar safini kengaytirish bosh omillardan biriga aylanadi.



FAYZ-U TAROVAT, OBODLIK FURSATI



Bahor XIDIROVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Ammo masalaning ikkinchi jihatini ham bor. Yangi tashkil etiladigan korxona ekologik muvozanat barqarorligiga tahdid tug'dirmaydimi? Qurilish jarayonida tovarat-otrofda o'sib turgan daraxtlarga shikast yetmaydimi? Korxonaning ishlab chiqarish chiqindilarini ushlab qolish tizimi bugunning talablariga javob beradimi? Tabiat sofligini saqlash uchun yashil belbog' barpo etiladimi? Yangi qurilayotgan korxona yonidan har kun o'tib-qaytar ekanman, shu kabi savollar xayolimdagi xarakter uradi.

Bugun bunday muammolar butun insoniyatni o'ylantirayotgani bor gap. Zero, o'tgan asrlarda dunyo miqyosida sanoatni rivojlantirish, ishlab chiqarishni kengaytirishda tabiiy muvozanatni saqlash bilan bog'liq ana shunday muhim tamoyillar e'tiborga olinmagan tufayli sayyoramizda ekologik vaziyat tang ahvolga kelib qoldi. Natijada global iqlim o'zgarishi inson hayoti va salomatligi, jamiyatning iqtisodiy rivojiga jiddiy ta'sir etyapti. Anomali issiq va qurg'oqchilik ta'sirida tez-tez ro'y berayotgan chang-to'zonlar tabiiy muvozanatni izdan chiqarayapti. O'rmon yong'inlari, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlar bu jarayonni yanada jadallashtirmoqda.

Bu kabi ekologik muammolar mintaqamiz va mamlakatimizni ham chetlab o'tmayapti. O'tgan asrlarda tabiatga bepisand munosabatda bo'lingani tufayli sayyoramizdagi katta suv manbalari ham chetlab o'tmayapti. O'tgan asrlarda tabiatga bepisand munosabatda bo'lingani tufayli sayyoramizdagi katta suv manbalari ham chetlab o'tmayapti. O'tgan asrlarda tabiatga bepisand munosabatda bo'lingani tufayli sayyoramizdagi katta suv manbalari ham chetlab o'tmayapti.

Insoniyatning ertangi taqdiri aynan ana shunday o'tkir masalalar oqilonla hal etilishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu bois, jahon hamjamiyati barqaror rivojlanishga to'siq bo'layotgan bunday global ekologik muammolarning inson hayoti va jamiyat rivojiga salbiy ta'sirini kamaytirish choralarini ilzatiyotir.

Yangi O'zbekistonning strategik maqsadi — ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishning resurs tejamlorligiga asoslangan “yashil” rivojlanish modeliga o'tishdir. Shu maqsadga joriy yil Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb e'lon qilindi va shu asosda davlat dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirilyapti.

Bu boradagi izchil chora-tadbirlar natijasida so'nggi yillarda Orol dengizining qurigan tubidagi 2 million gektar maydonda sho'rga chidamli cho'l o'simliklari ekildi. 2030-yilgacha ushbu hududning 80 foizida yashil qoplamaga hosil qilish rejalashtirilgan. Mintaqada havo harorati jadal oshishining oldini olishda havoga isxiconga gazi chiqarilishini kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda uglerod neytralligiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan keng miqyosdagi chora-tadbirlar natijasida tabiatga chiqayotgan bunday tashlamlar miqdorini 35 foiz kamaytirish reja qilingan.

Bu borada “yashil” energetika ulushini oshirish ham muhim qadamlardan biridir. Yurtimizda so'nggi yillarda bu yo'nalishda hayotga tatbiq etilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida bugunga kelib, mamlakatimizdagi umumiy generatsiyaning

EZGU ISHLARGA BARCHAMIZ KAMARBASTA BO'LAYLIK

23 foizini yashil energiya tashkil etmoqda. “Yashil” energiya hisobidan 2 milliard 730 million kub metr tabiiy gaz tejaldi. Atmosferaga 4 million tonna zararli modda tashlanishining oldi olindi. Albatta, bu yurtimiz va mintaqamizda ekologik muhit musaffoligini ta'minlash yo'lidagi muhim yutuqdir.

Belgilanmagan joyga chiqindi tashlash bilan bog'liq 3792 ta holat aniqlandi

Shu bilan birga, hali bu jabhada qilinadigan ishlar ham ko'p. Zero, ekologik muhit sofligini ta'minlash va tabiiy muvozanatni saqlashga erishish doimiy e'tibor va uzluksiz sa'y-harakatlarni talab etadi. Bu borada hududlarda tozalik, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini samarali tashkil etish, ushbu tadbirlarda aholining faol ishtirokini ta'minlash lozim. Shuningdek, bugun mamlakatimizda keng quloch yo'yan qurilish ishlarida ham tovarat-atrofga chang va chiqindi chiqishining oldini olish va obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Albatta, hamma joyda ham ishlar talab darajasida deb bo'lmaydi. Bir qator hududlarda tozalik, ozodalik holati qoniqarli emas. Qolaversa, havo sofligini saqlashda muhim manba bo'lgan yashil boylik — daraxtlar noqonuniy kesilishining oldini olish, daraxt ekish va yangi ekilgan nihollar unib-o'sib ketishiga e'tibor ham



ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. Ana shunday omillar ta'sirida “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida bu yil bahorda ekilgan ko'chatlarning 27,5 million tupi qurib qolgan. Boz ustiga yog'ingarchilik kam bo'ldi. Kuzning ikkinchi oyi tugagan bo'lsa-da, deyarli yog'ingarchilik bo'lmadi. Gidrometeorolog mutaxassislar bu holat yana davom etishini prognoz qilyapti. Natijada shundoq ham tang ekologik vaziyat yanada murakkablashmoqda. Havodan chang-g'ubor arimayapti. Shunday vaziyatda ekologik muhit musaffoligi yo'lidagi sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirish bugunning muhim talabidir.

Shu yil 14-oktabr kuni mahalla tizimini yanada takomillashtirish va joylarda ishlarni samarali tashkil etish masalalari yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz bu masalalarga keng ommangani e'tiborini yana bir karra qaratdi.

Yig'ilishda mahallaning ozodaligi shu yerda yashayotgan aholi, “mahalla yetiligi” hokimning “yuzi” ekani, shunday bo'lsa-da, ayrim mahallalar, ko'chalar, qurilishlar atrofi, arig'lar, xiyobonlarda ozodalik talablariga rioya etilmayotgani ko'rsatib o'tildi. Shu bois, butun respublikada tozalik va ozodalik oyligi e'lon qilindi. Har bir tuman va shahar hokimi ko'chasi, yo'li, arig'i, xiyobonini tartibga keltirib, doimo ozoda tutishi shartligi

qayd etildi.

Joylarda uzluksiz ishlaydigan brigadalar tashkil qilinib, ko'cha, xonadon, ko'p qavatli uy, ijtimoiy obyektlar atrofini tozalash vazifasi topshirildi. “Toza hudud” korxonalariga qarashli maxsus texnikalar ham bunga to'liq safarbar qilinishi belgilandi.

Shu kunlarda mazkur oylik doirasida barcha hududda qizg'in ishlar bajarilyapti. Jumladan, poytaxtimizda “Toza hudud” va “Toza poytaxt” loyihalari doirasida maxsus shtab ish boshladi.

Mahallalarning tozalik va sanitariya holatini yaxshilash, kuzgi xazonrezgi mavsumida chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida uyushqoqlik bilan ishlayapti. Mahallalar, ko'p qavatli uylar, ijtimoiy muassasalar va korxonalarda atrofi tozalanib, chiqindilar tashib ketilyapti. Suv yo'li tozalanmoqda. Bu tadbirlarga aholini keng jalb etish maqsadida targ'ibotlar o'tkazilyapti. Jumladan, turli tadbirlar, tanlovlar uyushtirilyapti.

Namangan viloyati Uychi tumanida ham oylik doirasidagi ishlar uyushqoqlik bilan davom etmoqda. O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi ma'lumotiga ko'ra, tumanidagi 53 ta mahalla, maktab va davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ko'chalar hamda hovli-joylarda keng ko'lami tozalik va obodonlashtirish ishlarini bajarilmoqda.

Bu xayrli tashabbusga javoban mahalla faollari, yoshlar va nuroniyalar tashabbusi bilan qabristonlar va ziyoratgoh hududi tozalanmoqda, daraxtlar oqlanib, yo'laklar



tartibga keltirilyapti. Bir qator mahallalarda salomatlik yo'lakchalari barpo etilmoqda. Kam ta'minlangan oilalarning uy-joyi homiylar ko'magida hashar yo'li bilan ta'mirlanayapti. Bu ishlar nafaqat hududning obod bo'lishi, balki aholi va yoshlarda tabiatga mehr, ekologik muhit barqaror bo'lishida mas'uliyat hissini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Oylik doirasida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Bosh prokuratura, Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligi xodimlaridan iborat ischi guruh tuzilgan va qat'iy ekologik nazorat o'tnatilgan. Joylarda reydtadbirlari o'tkazilyapti. Bu jarayonda belgilanmagan joylarga chiqindi tashlash bilan bog'liq huquqbuzarliklar aniqlanib, tegishli tartibda chora ko'rilmogda. Xususan, 15-oktabrdan 25-oktabrga qadar belgilanmagan joylarga chiqindi tashlash bilan bog'liq 3792 ta holat aniqlandi va huquqbuzarlarga qonuniy chora ko'rildi.

Hozir barcha hududda reydtadbirlari davom ettirilmoqda. Qolaversa, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan o'tnatilgan onlayn kuzatuv kameralari nazorati ham kuchaytirilgan.

— Ko'chat ekish, bog' barpo etish otabobolarimizdan bizga meros ezgu qadriyat,

— deydi O'zbekiston mahallalari uyushmasi Navbahor tumani bo'limi bosh mutaxassisi Aziz Jumanov. — So'nggi yillarda bu an'analimizga e'tibor kuchaydi. Joylarda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarida aholining faolligi oshmoqda. Biroq katta mehnat va xarajat evaziga ekilgan nihollarni to'liq undirish, qolaversa, daraxtlarni parvarishlash, ayniqsa, ularning noqonuniy kesilishining oldini olishda mas'uliyatsizlik, sustkashlik kuzatilyapti. Tabiat esa bunday e'tiborsizlikni aslo kechirmaydi. Shu bois, tabiat muhofazasi yo'lida barchamiz yakdil va hamnafas bo'lishimiz lozim.

Bu borada kelajak avlodlar oldidagi burchimizni bajarishimiz uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, endi agar “yettilik” va mahalla aholisi yashil hudud barpo etish tashabbusi bilan chiqsa, tuman hokimi 10 sotixgacha yer maydoni ajratib berishi belgilandi. Tasavvur qiling, har bir mahallada 10 sotixdan yashil hudud barpo etilsa, hududlarimiz yanada obod bo'ladi, fayzli, so'lim, xushmanzara go'shalar ko'payadi. Bundan, avvalo, o'zimiz manfaat ko'ramiz.

Ayni paytda mamlakatimizda ekologik muhit barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ishlar tizimli asosda davom etmoqda. Bu jarayonda sanoat korxonalari va ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ekologik sof rivojlanish mexanizmlarini joriy etish ham e'tiborda. Vazirlar Mahkamasining “Sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bu boradagi ishlar muhim dasturlamal bo'layotir. Qarorga muvofiq, atmosfera havosi ifloslanishi monitoringini amalga oshirish uchun avtomatlashgan kichik stansiyalar o'rnatilyapti.

Tabiiy atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar monitoringini sifatli yuritish uchun ekologiyaga ta'siri bo'yicha I va II toifalarga mansub xo'jalik yurituvchi subyektlarga havoga chiqadigan tashlamlarni tahlil qiluvchi avtomatik monitoring stansiyalari o'rnatildi. Yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalar va lokal suv tozalash quurilmalari o'rnatilib, mavjudlari modernizatsiya qilinmoqda. Sanitar himoya hududlari avtomatik stasionar kuzatuv postlari bilan jihozlanayotir.

Atrof-muhitga salbiy ta'siri yuqori bo'lgan past sifatli yonilg'i — A1-80 benzinidan voz kechilgan havo sofligini ta'minlashda yana bir muhim qadam bo'ldi. Global isishga sabab bo'layotgan ifloslantiruvchi manbalardan biri — ko'mir yoqishni kamaytirish choralari ko'rilayotir.

Toza havo tashabbusi uzluksiz sa'y-harakatlarni talab etadigan dolzarb masaladir. Shuning uchun yurtimizda bu borada salmoqli ishlar tizimli bajarilmoqda. Xususan, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tashabbusi bilan “Avtomobilsiz kun”, “Toza havo” oyligi kabi aksiyalar o'tkazilmoqda.

Albatta, bu chora-tadbirlarning barchasi yurt obodligini ta'minlash, zaminimizning har bir go'shasini toza-ozoda, fayzli mas-kanga aylantirishga xizmat qilmoqda. Zero, buyuk tabib Abu Ali bin Sino poklik, ozodalikning inson hayotidagi yuksak o'rmini alohida urg'ulab, “Men qoldirib ketayotgan zo'r tabiqlarning birinchisi tozalikdir”, deb uqitqan. Bunday muhitni barpo etish esa har birimizning harakati, tabiatga mehr va oqilonla munosabatimizga bog'liq.

Shu bois, ayni kunlarda yurtimiz bo'ylab davom etayotgan tozalik va ozodalik oyligida barchaning faol ishtiroki ayni muddaodir. Bu bilan har birimiz o'zimiz yashayotgan hudud obodligi va go'zalligini ta'minlashga ko'maklashgan bo'lamiz. Qolaversa, tabiatga mehrli munosabatimiz orqali kelajak avlodlarga unumdor yer, zilol suv, musaffo havoga ega go'zal Vatanni meros qilib qoldirishdek ezgu vazifalarga hissa qo'shamiz.



Ilm va amaliyot uyg'unlashganda

Tozalik, ozodalik, tabiat musaffoligi haqida gap borar ekan, mazkur yo'nalishda yurtimizda ko'plab xayrli tashabbuslar keng quloch yozayotganini alohida e'tirof etish joiz. “Yashil makon” umummilliy harakati shulardan biri. Ushbu loyiha Prezidentimiz tashabbusi bilan 2021-yilda boshlangan edi. O'tgan yillarda loyiha doirasida daraxt ekish, yashil hududlarni kengaytirishni umummilliy harakatga aylantirish yo'lida tizimli ishlar qilyapti.

2021-2024-yillarda loyiha doirasida mamlakatimiz bo'ylab 736 million tup daraxt-buta ko'chati hamda qalamchasi ekildi. 452 ta bog', 254 ta yashil jamoat parki tashkil etildi. Atrof-muhitga ta'siri xavfi yuqori bo'lgan yirik korxonalar va ularga tutash hududlar, chiqindi poligonlari, tumanlar, shaharlar atrofida yashil belbog'lar barpo qilinmoqda. Nukus, Buxoro, Urganch va Termiz shaharlari atrofida “yashil qalqon”lar yaratildi.

Albatta, ekilgan har bir tup niholni parvarishlashda sug'orish tizimining o'rni muhim. Shu maqsadda 490 ta quduq qazilib, 3,5 ming kilometrligi sug'orish tarmoqlari yotqizildi. Suv manbasi mavjud bo'lmagan hududlarga ko'chatlarni sug'orish uchun qariyb mingta maxsus texnika biriktirildi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bugun sayyoramizda ro'y berayotgan global ekologik muammolar barcha jabhalarda bo'lgani kabi ko'kalamzorlashtirish ishlarida ham yangicha yondashuv va mezonlarni joriy etishni taqozo qilmoqda. Zero, bundan bir necha yil oldin bu borada ishlab chiqilgan qoida va mezonlar, shu bilan bir qatorda, hududlarni yashillashtirish maqsadida tanlangan daraxt turlarining hammasi ham bugungi murakkab ekologik sharoitga to'la javob beradi deb bo'lmaydi. Qolaversa, bugun urbanizatsiya jarayoni chuqurlashib, shahar aholisi ko'paymoqda. Shu bois, yashil loyihalarni amalga oshirishda shu jihatlarni alohida e'tiborga olish talab etilyapti.

Odatda shahar deyilsa, ko'z oldimizda osmono'par imoratlar, asfalt yoki beton qoplamali ravon ko'chalar, muhtasham inshootlar gavdalanaadi. Ammo zamonaviy shahar qiyofasini yaratishda bunday omillar qatorida yashil manzaralarga ham e'tibor kuchaymoqda. Dunyoning qator so'lim shaharlariga nazar solsak, ular tog'lar va yashillik bilan o'ralgan, o'rmasidan daryo, soy yoki jilg'alar oqib o'tadi. Bu shaharning havosi toza, iqlimi mo'tadil bo'lishini ta'minlaydi. Yurtimiz shaharsozligida bu jihatlarga ham e'tibor qaratilyapti. Poytaxtimizda qad rostlayotgan Yangi Toshkent va hududlarda barpo etilayotgan “Yangi O'zbekiston” massivlaridagi

bunyodkorlik, ko'kalamzorlashtirish ishlariga bunga misol.

Bunday xayrli ishlar davomli bo'lishida ta'lim va ilm-fan tizimidagi loyihalarning ham ahamiyati katta. Toshkent davlat agrar universiteti ana shunday ilm-fan muassasalaridan. Mazkur ta'lim dargohining o'rmonchilik va landschaft dizayni kafedrasini mudiri, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Mansur Xolmurodovning aytishicha, olimlarimiz bu borada ta'lim va ilmiy-tajriba ishlarida davlat va xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda ishlayotgani samara bermogda. Universitetda malakali kadrlar tayyorlash bilan birga yurtimizni ko'kalamzorlashtirish ishlarini samarali tashkil etishga oid qator ilmiy loyihalar ham amalga oshirilyapti

“Xususan, yashil makonlarni kengaytirishga oid izlanishlarda hududlarning iqlim sharoiti va qurg'oqchilikka chidamli, havodagi chang-g'ubor va zararli moddalarni ushlab qolishda yuqori samara beradigan nav va turlar sinovdan o'tkazilyapti.

Urug'chilikni rivojlantirish — ilmiy izlanishlarning yana bir muhim yo'nalishi. Bu borada jahonda qo'llanayotgan ilg'or usullar ham o'zlashtirilyapti. Masalan, o'simliklar maxsus konteynerlarga ekilib, undirilsa, ildizi yaxshi rivojlanadi. Boshqa joyga ko'chirib o'tqazilganda unib ketishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Universitetda bunday ilmiy ishlarni sinovdan o'tkazish uchun maxsus o'quv-tajriba uchastkasida yetarli sharoit yaratilgan. Qolaversa, olimlar yurtimizdagi o'rmon xo'jaliklari mutaxassislari bilan hududlarda ham ilmiy izlanishlarni davom ettirmogda.

Darvoqe, maqolani mahallamizda qad rostlayotgan yangi korxona haqidagi fikrlar bilan boshlagan edik. Mahalla raisining aytishicha, bu korxona yangi yilgacha ishga tushishi kutilyapti.

Har kuni shu atrofdan o'tib, qurilish-ta'mirlash ishlarini kuzataman. Kecha ishdan qaytayotsam, ko'chalar, ariq bo'yi tozalanib, yo'llar asfaltlanibdi, yo'l chetiga yangi ko'chatlar o'tqazilibdi. Kechagina to'zib yotgan joy obod va fayzli manzilga aylanganini ko'rib, xursand bo'lganimdan ustalarga rahmat aytdim. Aytishlaricha, yangi ekilgan nihollar uchun tomchilab sug'orish tizimi ham o'rnatiladi. Demak, yurtimizning barcha hududidagi kabi mahallamizda ham “yashil rivojlanish” tamoyillari izchil davom etadi. Bu ishlariga barchamiz kamarbasta bo'lsak, havomiz musaffo, suvimiz toza bo'ladi, zaminimiz fayz va tarovatga to'ladi.

1000-2000 DOLLAR MAOSH OLAYOTGAN

muallimlar

mamlakatimizda ularning
safi 60 mingdan ortdi

Bugun aksariyat ota-onalar farzandini maktabdagi qo‘shimcha darslar, o‘quv markazlari, onlayn kurslarga jalb qilib, buning uchun sarflayotgan mablag‘iga og‘rinmayapti.

Chunki ta‘limga tikilgan investitsiya hech qachon befoyda bo‘lmagligini tushunib yetyapti. Rosti ham, bilimga yo‘naltirilgan sarmoyaning natijasi avval bir necha yilda ko‘ringan bo‘lsa, hozir uch oydayoq namoyon bo‘layotgani chin. Fanlar, tillar bo‘yicha sertifikat olib, oliygohlarga imtiyozli ravishda qabul qilinayotgan yoshlar buni amalda ko‘rsatayapti. Farzandlarimizga mukammal bilim berayotgan mahoratlil muallimlar safi kengayishi uchun butun boshli ta‘lim tizimiga davlat investitsiya kirityapti.



Hilola XUDOYMURODOVA, Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanidagi 36-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi:

— 10 yillar avval o‘qituvchi ham moddiy tomondan, ham ma‘nan siqiq holda edi. 2016-yili kreditga uy olganmiz. O‘shanda oylik maoshim 800 ming so‘m, kredit to‘lovimiz esa 1 million 200 ming so‘m edi. 400 ming so‘m yetmasdi. Shu kemtkni, kamiga ro‘zg‘or xarajatlarni qoplay olmay juda qiynalganmiz. Ming shukur, bugun yetishmovchiliklar ortda qoldi, o‘zimiz orzu qilgan hayotda yashayapmiz. Yonib ishlayman, kelajak uchun borimni beraman degan fidoyi o‘qituvchiga hozirgi kunda hamma sharoit bor. O‘zim misolimda aytadigan bo‘lsam, PISA bo‘yicha 100 foizli ustama olyapman. 2 yildan buyon vazir jamg‘armasidan beriladigan ustama nasib qilyapti. Qisqacha aytganda, o‘z mehnatim bilan 1,5 ming dollardan ortiq maosh olyapman. Prezidentimiz o‘qituvchilar maoshi ming dollarga yetishini aytganda, “O‘zi 20-30 soat darsimiz bo‘lsa, ming dollarni qanday qilib olamiz?”, deganlar bo‘ldi. Hammasi tizimli rejalashtirilgan ekan, mana, milliy sertifikatlar uchun ustamalar joriy etildi, har bir maktabda repetitorlik kurslarini tashkil etishga ruxsat berildi. O‘tgan yili o‘qituvchi va murabbiylar bilan ochiq muloqotda Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslar bugun amalda. 86 va undan yuqori ball olgan o‘qituvchilar va‘da qilingan 70 foiz ustamani olyapti.

Men, olis viloyatdagi o‘qituvchi ham har yili deyarli bir yutuqqa erishaman. Joriy yilda “Sog‘lom turmush” medali bilan taqdirlanganim menga yanada kuch bag‘ishladi. Prezidentimiz bilan bir davrada o‘tirib, o‘qituvchiga qaratilgan e‘tibordan benihoya quvondim. “O‘zbekiston kelajagi ta‘limda. Men har doim o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlayman, suyanchi, tayanchi bo‘laman”, degan gaplarini eshitib, 200 dan ziyod pedagog qatori to‘lqinlandim. Butun yig‘ilish davomida ko‘zimda yosh bilan o‘tirdim. Davlat xizmatlarining o‘qituvchilar uchun ikki karra arzonlashi, pedagoglar farzandlari uchun oliygoh shartnoma to‘lovlarining 30 foizi to‘lab berilishi hech bir davrda bo‘lmagan. Juda ko‘p sonli pedagoglarga bunday sharoitlarni yaratib berish uchun davlat byudjetidan katta mablag‘ sarflanadi, albatta. Shunday bo‘lsa-da, ziyoli ahlini e‘zozlab, o‘qituvchi manfaatini, farovonligini o‘ylayotgan tog‘dek suyanchimiz barqarorligidan minnatdorman. Poytaxtdagi tabdirlar davomida “Muallim” filmi butun zal hayajon, ko‘zida yosh bilan tomosha qildi. Chunki filmda muallim o‘zining dardini, o‘zining siymosini ko‘rdi. Film qahramoni kabi sharaflil kasbda qilanimdan g‘ururlandim.

Dilorom MAMATOVA, Namangan shahridagi 1-umumta'lim maktabi davlat tili fani o'qituvchisi:

— To‘g‘ri aytasiz, bugun o‘qituvchiligimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Biroq bundan 10 yillar oldin shu kasbni tanlaganimdan afsuslangan paytlarim bo‘lgan. Sababi, jismoniy ishga qiynalar edim. Ayniqsa, paxta terish og‘ir ish edi menga. Shuning uchun oliy ma‘lumot olganmidim, deya hafsalam pir bo‘lib ketardi. Qolaversa, darsimni hokimliklar, ichki ishlar, umuman, yuqori tashkilotlar vakillari xohlagan payt bo‘lishi ham yoqmas edi. O‘qituvchilarning mavqei past bo‘lgan ular uchun. Xayriyatki, vaqtning o‘zi oliy hakam. Mana, endi o‘qituvchilar orzu qilgan kunlar keldi.

Bugun o‘qituvchining ham, o‘quvchining ham bilimini aniqlaydigan mukammal tarozi bor. To‘g‘ri, bir paytlar tanish-bilishchilik bo‘lganini eshitganmiz. Biroq hozir hammasi haqoniy deb ayta olaman. Chunki yutuqlarimning bariga o‘z kuchim bilan erishdim. Kundalik.com platformasi, ayniqsa, menga yoqadi, tanish-bilishga hojat yo‘q.



O‘qishni tamomlagach, 13 yil Namangan shahri pedagogika kollejida ishlaydigan muallim. 2019-yildan mazkur shahardagi 1-maktabda ish boshladim. Mutaxassis edim. 1,5 yilda navbatdan tashqari attestatsiyalarda qatnashib, oliy toifaga o‘tdim. Ona tili va adabiyot fanidan milliy sertifikatim borligi uchun 50 foiz ustama olyapman.

Test va suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tib, vazir jamg‘armasining 100 foizli ustamasini ham qo‘lga kiritdim. Mening uchun doimiy izlanish barobarida yuqori maoshga erishish qiyin jarayon emas. Aytganimek, aqliy mehnatni yaxshi ko‘raman. Eng muhimi, bugun aqliy salohiyatingizni ro‘yirost baholaydigan shaffof tizim yaratildi. Shu tizim orqali toifa, milliy sertifikat oldim. Attestatsiyalar adolati tashkil etilyapti. Test va imtihonlarning bari shaffof. Olimpiadalarda ham adolati yondashuvlarga erishdik. Ularda yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritgan o‘quvchilarni bor.

Joriy o‘quv yili boshidan kasbiy rivojlanish kunlarida shahar bo‘yicha mentorlik (mentorlik uchun ham 20 foiz ustama bor) qilyapman.

Juda ko‘p yangiliklarni o‘rgandim, foydali mashg‘ulotlar bilan tanishdim. 80 ga kirgan qaynotam bor. Ularga xizmat qilsam, ishlaringma rivoj tilab duo qiladi. Balki shundandir, faoliyatim bilan hurmat topdim.

Orzimat ZARIPOV, Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi 11-umumta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi:

— Bugungi kunda o‘qituvchilarning nufuzi sezilarli darajada oshganini yanada chuqurroq his qilyapman. Chunki bundan 9-10 yillar oldin ham pedagoglarga ko‘p majburiy mehnat yuklanar edi, endi esa o‘qituvchiga hech kim vazifasidan boshqa ishni qildirmaydi, o‘z ustida ishlash uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Men dastlab ish boshlagan 2017-yillarda ham o‘qituvchilar yuritadigan hujjatlar soni,



hisobotlar ko‘p edi. Asosiy e‘tiborimiz, vaqtimiz qog‘ozbozlikka ketib qolardi. Hozir esa kerakli hujjatlarimiz aksari chiqarib tashlandi. Endi erkin ijod qilish, o‘z ustimizda ko‘proq ishlashga vaqt topyapmiz. Iqtisodiy imkoniyatlarimizni oshirishimiz uchun ham qator imtiyozlar berildi. 8-9 yil oldin o‘qituvchilar toifasiga qarab bir xil maosh olardi. Endi esa toifasi oshgani sari maoshi ham oshib boradi, ko‘plab ustama va rag‘batlantirishlar mavjud. Attestatsiyadan 86 va undan yuqori ball olsak, maoshimizning 70 foizi miqdorida ustama olyapmiz. O‘quvchilarimiz oliy ta‘lim muassasalariga yuqori ball bilan kirsak yoki respublika olimpiadalarga chiqsa, metodik qo‘llanmalarimiz ommalashta, o‘z huddimizda ilg‘or o‘qituvchi deb topilsak, vazir jamg‘armasidan ustamani qo‘lga kiritishimiz mumkin. Bundan tashqari, maktab direktori jamg‘armasidan ham 50 foizgacha ustama, sertifikatlar uchun alohida to‘lanadigan ustamalar bor.

Bularga erishish yo‘lida avvalgidek tanish-bilishchilik yo‘q. Hammasi tizimlashtirilgan, imtihonlarning bari shaffof o‘tkazilyapti. Attestatsiyaga FACE ID — yuz tekshiruvidan o‘tib kiryapmiz. Qanday qilib nohaqlik bo‘lishi mumkin?

Bahorgi attestatsiyada 86 ball yig‘ib, 70 foizli ustamani qo‘lga kiritdim. Fevral-mart oylarida o‘tkazilgan vazir jamg‘armasi sinovlarida ham qatnashib, saralash testidan, 2 bosqichda suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tdim. Buning uchun 9 oy vazir jamg‘armasidan qariyb yetti million so‘m ustama oldim. A darajadagi milliy sertifikatimga 50 foizli ustama qo‘shilyapti. Hammasi jamlanib, maoshim sezilarli darajada oshdi. 2 ming dollarga yaqin maosh olayotgan o‘qituvchilar boshqa ustozlarni ham ruhlantiryapti. Quvonarlisi, 7-8 yil avval bitiruvchi o‘quvchilar bilan suhbatlashsak, o‘qituvchi bo‘laman degani deyarli topilmasdi. Hozir bitiruvchi sinflarda so‘rov o‘tkazsak, ona tili va adabiyot, rus tili, biologiya, tarix o‘qituvchisi bo‘laman degan o‘quvchilar ko‘paydi. Bu, albatta, quvonarli. Ular bugun pedagog o‘z ustida ishlash, o‘quvchilarga sifatli bilim bersh va mahoratini oshirib borsak, yuqori maoshiga emas, xalq orasida, jamoasida obro‘-e‘tiborga erishishini tushunib yetyapti. Men o‘quvchilarimning natijalaridan ko‘proq ilhom olaman, shu menga kuch beradi. Fan olimpiadalari, milliy sertifikat olish imtihonlarida ular bilan birga turaman. Oliygohlarga imtiyozli kirishlariga harakat qilaman. Axir o‘qituvchiga shuncha imkoniyat, sharoit berilyotgan bir paytda fidoyi bo‘lishimiz kerak deb o‘ylayman.

Nodira BOBOQULOVA,



Yuksalish pallasi

Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi 21-maktabning fransuz tili o'qituvchisi:

— To‘g‘ri, bugunning o‘qituvchisidan har qachongidan ko‘proq fidoyilik talab qilyapmi. 2001-yildan buyon o‘zim o‘qigan maktabda fransuz tili o‘qituvchisi sifatida ishlayman. 2017-yilda 100 foizli natija bilan oliy toifa olganman va 2024-yilda 92 ball bilan uni yana himoya qilishga erishganman. Ikki marta chet tili fan o‘qituvchilariga ajratilgan 30 foizli sertifikat olganman. Xalqaro DALF C1 diplomini oldim. Ikki marta milliy C1 sertifikatiga ega bo‘lganman va uch marta vazir jamg‘armasidan ustama olishga erishdim. Maktabda direktor jamg‘armasi hisobidan 40 foizli ustama olib kelyapman. Buning uchun esa imkon qadar o‘z ustimda ishlayman. 2013-yildan buyon har yili o‘quvchilarim tumanda, viloyatda 1-, 2-, 3-o‘rinlarni egallab keladi. Respublika bosqichida uch marta yaxshi natijalarni qo‘lga kiritdik.

Qanday imtihon bo‘lmasin, faqat bilimim bilan natijaga erishganman. Men bilgan biror o‘qituvchi qandaydir yo‘llar bilan diplom yoki sertifikat olganini ko‘rmadim. O‘qituvchi o‘z



ustida ishlash, o‘quvchilarga chin yurakdan dars bersa, yutuqqa erishaverar ekan. Darslarda foydalanish uchun turli metodlar bo‘yicha o‘zbek va fransuz tillaridagi qo‘llanmam viloyat miqyosida ommalashdi. 2022-yil Fransiyaning Nissa shahridagi xalqaro Frankofoniya universitetida malaka oshirib keldim. O‘quvchilarim orasida ham xalqaro DALF B2 sertifikat, milliy B2 sertifikati va C1 sertifikatini olganlar bor. Ko‘pchiligi oliygohlarda o‘qiyapti. 10 dan ortiq shogirdim tumanimizdagi maktablarda fransuz tilidan dars beryapti.

Ayrim ota-onalar farzandlari kelajagi uchun faqatgina ingliz tili zarur deb o‘ylab, fransuz tiliga juda qiziqadigan, iste’dodli farzandining shu yo‘lida davom etishiga qarshilik qiladi. Shunday paytlarda xafa bo‘lsam-da, hech qachon yo‘nalishimni, kasbimni o‘zgartirish haqida o‘ylamayman. Agar o‘qituvchi bo‘lmasam kim bo‘lar edim, deymen. Boshqa kasbni sasavur ham qila olmayman. Shuning uchun o‘qituvchiligidan faxrlanaman. Har kuni ertalab maktabga kirib borayotganimda o‘quvchilar “Assalomu alaykum, ustoz” deyishsa, ko‘pincha fransuz tilida salom berishsa, quvonib ketaman. Hozir fransuz tili fanidan tumanimizda mentor o‘qituvchi sifatida ham faoliyat yuritayman. O‘zim singari fransuz tili o‘qituvchilari bilan bor bilimimni o‘rtqolashtirib, yangi metodlarni o‘rgataman. Bu orqali darslarning umumli bo‘lishiga hissa qo‘sholsam, davlatimiz, xalqimiz oldida yuzim yorug‘ bo‘ladi.

Gulnoza USMONOVA,

Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi 1-maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi:

— Ha, bugun bizga berilayotgan alohida



e‘tibor fidoyilik ko‘rsatishimiz, xalqimiz, kelajagimiz oldida yuzimiz yorug‘ bo‘lishi uchun ochilayotgan yo‘ldir. Sentyabrden to noyabr, dekabrgacha paxta dalasida yurgan paytlarimiz amallab darslarni yetkazib olish-u, o‘quvchilarda sal bo‘lsa-da tushuncha hosil qilishni o‘ylaganmiz. Paxta shtabida hokimdan gap eshitib yig‘lagimiz kelsa-da, etak tutib, paxta terishga majburlangan o‘quvchilarimizdan ko‘ngil uzolmaganmiz. Maoshimiz ro‘zg‘orning kamiga yetmagan paytda ham ta‘limdan ketmadik. Tabiiyki, erkaklar arzimagan maosh bilan oila tebrata olmasdi. Qanchasi chetga chiqib ketdi, o‘zini boshqa ishlarga urdi o‘sha paytlar. Endi ular ham maktablarga qaytyapti. 17 million so‘mdan ortiq oylik olish tushimizga ham kirmagan. Yana hurmatu e‘zoz bilan yuqori maosh olsang, juda boshqacha bo‘lar ekan. Shunday bir davrda yeng shimarib, belni bog‘lab ishlamaslik mumkinmas. Butun ziyoli ahlini uyg‘otadigan bunday islohotlar yangi uyg‘onish davrini qurishga xizmat qilyapti. Ma‘na‘noda, bugun o‘qituvchining o‘rni faqat maktabda va bu juda to‘g‘ri qaror.

Darhaqiqat, ular kabi o‘qituvchilarga bugun ko‘plab havasda. Kecha narx ustida ozroq talashganlarga tepa tortmay “o‘qituvchimiz”, deya pisanda qilganlar bugun o‘qituvchi ham boy bo‘layotganini ko‘rib-bilib turibdi. Farzandlarining ilm olishi uchun ham shu kasb egalari yaxshi yashashi, hech narsadan kam bo‘lmagligini ular va boshqalar chuqur anglayapti. Shu ma‘noda, aksariyat yurtdoshlarimiz ziyolilar uchun har qancha e‘tibor, har qancha rag‘batga xayrixohlik bildirsa boshladi. O‘qituvchi farovonlikka eng qiyin yo‘l — borini baxshida qilish bilan erishayotganiga guvohligini yashirmaydi, o‘qituvchining yaxshi yashashiga monelik qilmaydi. 1000 yoki 2000 dollar maosh olayotgan ustozlarning shunga munosibligini faxrlanib gapiradi. Demak, O‘zbekistonda o‘qituvchining nafoqat maoshi, obro‘si ham chinakamiga oshib borayotgani rosti.

Davra suhbatini
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Munajat MO‘MINOVA
olib bordi.

Favqulodda vaziyatlar asrlar davomida insoniyatga xavfsizlik nuqtayi nazaridan muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatib kelgan. Shu bois, aholiga ehtimolli vaziyatlardan kelib chiqib muhofazalanish choralari o'rgatish muhim. Muhofazalanish choralari favqulodda vaziyatlarning oldini olish, talafot hajmini kamaytirish, oqibatlarini bartaraf etish hamda favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Inson qadri uchun

INNOVATSION MOBIL ZILZILA SIMULYATORI

HAM AHOI XAVFSIZLIGI, HAM IQTISODIY
BARQARORLIKKA XIZMAT QILADI

yo‘naltirilgan ushbu hujjat mazkur yo‘nalishdagi insonlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish borasidagi islohotlarning ustuvor maqsadlari belgilab berildi.

Jumladan, favqulodda vaziyatlarning barvaqt oldini olish va oqibatlarini kamaytirish faoliyatini ustuvor vazifa sifatida qabul qilish orqali mahallalar darajasida keng qamrovli profilaktika mexanizmlarini yaratish va samarali ta'biq qilish energetika, yirik ishlab chiqarish, qurilish va xizmat ko‘rsatish obyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfni boshqarish, texnolog avariyalarni o‘z vaqtida bartaraf etishning yangi standart hamda metodikalarini ishlab chiqish va favqulodda vaziyatlar sharoitlarida harakatlanish amaliyotini yo‘lga qo‘yish ustuvor yo‘nalishlar etib belgilandi.

Bundan tashqari, favqulodda vaziyatlar yo‘nalishida davlat nazorati shakllarining talablari hamda me‘yorlarini zamon talablariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini transformatsiya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini belgilash favqulodda vaziyatlar xavfini bartaraf etish sohasiga sun‘iy intellekt, robototexnika va zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, mazkur holatlarning oldini olishga mas‘ul idora va tashkilotlarning axborot tizimlarini yagona texnologik platformaga birlashtirish



barcha bo‘g‘indagi favqulodda vaziyatlar organlari uchun kadrlar va rahbarlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha dual ta‘limga asoslangan yaxlit, uzluksiz o‘quv tizimini yo‘lga qo‘yish, mazkur jarayonga o‘qitishning ilg‘or pedagogik usullarini ta'biq etish ham soha faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘ladi.

Farmon bilan sohani isloh qilishning tashkiliy asoslari, boshqaruvda takrorlanuvchi funksiyalarni maqbullashtirish, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish hamda moliyaviy asoslar bilan bog‘liq dolzarb vazifalar ham belgilandiki, bu aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofazalash, soha faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!

bo‘yicha amaliy tayyorgarlikdan o‘tkazish mumkin. Markazning aholini tayyorlash imkoniyati bir yilda ko‘pi bilan 10 ming nafarga yetmoqda. Odamlarning qariyb 70 foizi seysmik faol hududlarda istiqomat qilishini inobatga olsak, yurtdoshlarimizni amaliy harakatlanishga tayyorlash imkoniyati yetarli darajada emas. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, aholini zilziladan oldin, zilzila vaqtida va undan keyin to‘g‘ri harakatlanishga tayyorlashni yuqori darajaga ko‘tarish, kuchli zilzila oqibatida talafotlar kamayishiga erishish hamda iqtisodiyotimizga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar miqdorini kamaytirish dolzarb vazifadir. Shuningdek, sohani zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda rivojlantirish darajasi hisoblanadi.

Bu kabi muammoli masalalarni samarali hal etishda ushbu hujjat bilan bir qatorda Prezidentimizning 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga old davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni ham muhim ahamiyatga ega. Zero, mazkur hujjatda Favqulodda vaziyatlar vazirligiga aholini favqulodda vaziyatlar, kuchli zilzilalar va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tabiiy ofatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha qator vazifalar belgilangan.

Fuqaro muhofazasi instituti ilmiy xodim va professor o‘qituvchilari tomonidan farmonida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida 2024-yilda “Zilziladan oldin, zilzila vaqtida va zilziladan keyin amaliy harakat qilishga o‘rgatishga mo‘ljallangan ko‘chma mobil zilzila simulyatori”ni yaratish loyihasi ishlab chiqildi. Shu asosda ishlab chiqilgan ko‘chma mobil zilzila simulyatori orqali aholini zilzilada amaliy harakatlanishga o‘rgatishdan tashqari turli darajadagi zilzilani virtual tarzda his etish (xonada), zilzila natijasida yuzaga kelgan suv toshqinida to‘g‘ri harakatlanish, zilziladan keyin yuzaga kelgan yong‘inlarni bartaraf etish, xavfli obyektda sodir bo‘lgan yong‘in portlashda to‘g‘ri harakatlanish va birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishga amaliy o‘rgatish imkoniyati ham yaratildi.

Bitta ko‘chma mobil zilzila simulyatori bilan bir yilda seysmik faol hududlarda istiqomat qiladigan 25-30 ming kishini amaliy harakatlanishga tayyorlash mumkin. Zilzila simulyatori orqali, birinchi navbatda, chekka hududlarda yashovchi aholida to‘g‘ri harakatlanish bo‘yicha amaliy ko‘nikma hosil qilinadi.

Mazkur simulyator yordamida shahar va qishloqlardagi hamda yetib borish qiyin bo‘lgan tog‘li va tog‘oldi hududlardagi aholi punktlarida ham zilzilada harakatlanishga amaliy tayyorlash mumkin bo‘ladi. Innovatsion ushbu qurilmani keyinchalik har bir viloyat uchun alohida ishlab chiqish hamda boshqa mamlakatlarga eksport qilish mumkin. Bu ham aholi xavfsizligi, ham iqtisodiy barqarorlikka zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Said-Azim ORIPOV,
Dilmurod QODIROV,
Fuqaro muhofazasi instituti
xodimlari

